

**EKSPORTNI DIVERSIFIKATSIYALASH ORQALI MAKROIQTISODIY
BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI**

G'aybullayev Abdunabi Abduvohid o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

**MAQOLA
MALUMOTI**

MAQOLA TARIXI:

Received: 19.08.2025

Revised: 20.08.2025

Accepted: 21.08.2025

ANNOTATSIYA:

KALIT SO'ZLAR:

*eksport,
diversifikatsiya,
makroiqtisodiyot,
barqarorlik, tashqi
savdo, eksport
geografiyasi.*

Maqolada O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirishning yangi bosqichida eksport salohiyatini oshirishning iqtisodiy rivojlanishga ijobjiy ta'siri o'r ganilgan. Raqobatbardosh tayyor mahsulotlarning ulushini oshirish va tashqi savdo subyektlarini rag'batlantirish orqali iqtisodiyotning barqaror o'sishi ta'minlanishi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, eksportda xom ashyo mahsulotlari ustuvorligi saqlanishi va jahon bozori konyunkturasi bu holatni yaqin vaqtida o'zgartirmasligi ko'rsatilgan. Tashqi savdo va eksportni erkinlashtirish bo'yicha klassik va zamonaviy iqtisodiy nazariyalar (A.Smit, D.Rikardo, E.Xekssher, B.Olin va boshqalar) tahlil qilinib, ularning milliy iqtisodiyotda eksportni rivojlantirish uchun ahamiyati ochib berilgan. Shu bilan birga, eksportga yo'naltirilgan strategik yondashuv va davlatning qo'llab-quvvatlashi iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ekani ta'kidlangan.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirishning yangi bosqichida eksport salohiyatini oshirilishi mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotga sezilarli darajada ijobjiy ta'sir ko'rsatdi. Raqobatbardosh mahsulot turlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish, eksport tarkibida xom ashyo mahsulotlarining emas, balki chuqur qayta ishlangan tayyor mahsulotlar ulushi

ustuvorligini ta'minlashga e'tiborning kuchaytirilishi, tashqi savdo subektlarini turli yo'llar bilan rag'batlantirilishi mamlakatimiz eksport salohiyatini kengaytirishda muhim o'rinn tutib, pirovard natijada ishlab chiqarish samaradorligining muttasil oshib borishi va iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlaydi.

So'nggi yillar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston eksporti tarkibida xom ashyo mahsulotlari ustivorligi saqlanib qolmoqda, jahon konyunkturasi sezilarli darajada barqaror bo'lган mahsulotlar eksporti cheklangan va yaqin kelajakda mazkur vaziyatning o'zgarish ehtimoli kam. Ayni vaqtda agrar sektor ishlab chiqarishi moslashuvchan taklifga ega.

Agrar sektor mahsulotlari eksportining o'sishi ichki bozorning mazkur sektor mahsulotlari bilan ta'minlanish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi, mahsulotni chetga chiqarishni rag'batlantirish esa, taklif hajmining o'sishiga olib keladi, ya'ni agrar sektor mahsulotlari eksportining o'sishi ichki bozorda taqchillikni keltirib chiqarmaydi.

O'zbekistonda eksport salohiyatini rivojlantirish maqsadida xususan, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida erkin savdo va eksport masalalariga oid nazariy qarashlarni o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Jumladan, erkin savdo va eksportni iqtisodiy o'sish omili sifatida talqin qiluvchi bir qator nazariy qarashlar mavjud.

Iqtisodiy liberalizm asoslarini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shgan ingliz klassik siyosiy iqtisod maktabi namoyandalari, ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishda erkin tanlash va qaror qabul qilishni yoqlab chiqqanlar. Bu ishlab chiqarish omillarining tarmoqlar o'rtaida erkin taqsimlanishini ta'minlash va ishlab chiqarishning oqilona tarkibini hamda erkin savdoning shakllanishini nazarda tutadi.

Ushbu ta'limotni A.Smit quyidagicha talqin qiladi: «...xalqaro mehnat taqsimoti stixiyali, avtomatik tarzda, raqobat jarayonida, «ko'rinmas qo'l» xarakati natijasida yuz berishi lozim» (Smit A. Issledovaniye o prirode i prichinax bogatstva narodov – M.: Ekonov-Klyuch, 1993. s. 265.). Uning fikricha, xalqaro mehnat taqsimotining shakllanishida, davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish bo'yicha amalga oshirilgan har qanday tadbir iqtisodiyotning o'zicha, erkin rivojlanishi jarayonidagi kabi qulay sharoit tu g'dirmaydi.

A. Smit qarashlari D.Rikardo tomonidan nisbiy afzallik nazariya-sini kiritish vositasida yanada rivojlantirildi. U erkin savdoni quyidagicha bayon etadi: «To'liq erkin savdo tizimida har bir mamlakat o'z kapitali va mehnatini tabiiy ravishda o'ziga eng katta foyda keltiruvchi tarmoqlarga sarflaydi. Shaxsiy manfaat ketidan bunday quvish ajablanarli holda barcha uchun eng manfaatli hisoblanadi. Mehnatsevarlikni rag'batlantirish, ixtirochilikni mukofotlash, bizga tabiat tomonidan in'om etilgan barcha kuchlarni ajoyib tarzda sarflashni ta'minlar ekan, bu tamoyil turli millatlar o'rtaida mehnatning eng samarali va eng tejamlı

taqsimlanishga olib keladi» (Rikardo D. Nachala politicheskoy ekonomii i nalogovogo ob-lojeniya – M.: Ekonov-Klyuch, 1993. s. 302.).

D.Rikardonning qiyosiy xarajatlar nazariyasiga muvofiq eksport- import oqimlari xalqaro mehnat taqsimoti talablariga mos ravishda tarkibiy o‘zgarishlar jarayonlarini faollashtirib, milliy iqtisodiyot tarkibining takomillashuvini ta’minlaydi.

Mehnatning mamlakatlar o‘rtasida taqsimlanishi mamlakatlararo savdo hajmining o‘sishiga qanday ta’sir ko‘rsatishini tushunish va mazkur savdoda o‘zaro manfaatdorlik nimadan iborat ekanligini anglash uchun nisbiy afzallik nazariyasini ko‘rib chiqish lozim. Nisbiy afzallik nazariyasi mehnat unumdoorligining mamlakatlar bo‘yicha bir-biridan farqlanishiga asoslanadi. Ushbu nazariyaga mufoviq, har qanday mamlakatda shunday bir mahsulot turi borki, har qanday sharoitda ham uni ishlab chiqarish boshqa mahsulotlarga nisbatan qulayroq va foydaliroq bo‘ladi. Mamlakat aynan ana shunday mahsulotni eksport qilishi lozim. Shunday qilib, D.Rikardo o‘z tadqiqotlarida samarali eksport asosida tovarlarning mutloq qiymati emas, balki nisbiy qiymati yotadi degan fikrni ilgari suradi (Rikardo D. Nachala politicheskoy ekonomii i nalogovogo ob-lojeniya – M.: Ekonov-Klyuch, 1993. s. 302.).

Rikardo modelida faqat bitta ishlab chiqarish omili – mehnat hisobga olinadi. Ammo, real hayotda xalqaro savdo nafaqat mehnat unumdoorligining mamlakatlar bo‘yicha tafovuti, balki mamlakatlarning resurslar bilan ta’minlanganlik darajasiga ham asoslanadi.

Dj.Mill bevosita yuqorida ta’riflab o‘tilgan Rikardo nomi bilan bog‘liq tashqi savdo qonuniga savdoda ishtirok etayotgan davlatlar talabining xarajatlarga ta’siri haqidagi fikrni rivojlantirish vositasida aniqliklar va to‘ldirishlar kiritgan. Mazkur davlatlar tovarlari xarajatlari orasida tafovutning mavjudligi, samarali savdo almashinushi uchun yetarli bo‘lmay, buning uchun eksport qiluvchi davlat tovarlariga talabning faollashuvi zarur. Xalqaro talabning tenglashuvi muvozanatni vujudga keltiradi, bunda bir davlat eksporti qiymati ikkinchi davlat importi qiymatiga teng bo‘ladi. Tashqi savdoda ishtirok etayotgan tovarlarga bo‘lgan yuqori talab va uning elastikligi tashqi savdo uchun maqbul sharoit yaratadi. Millning fikricha, xalqaro savdo ikki tomonlama talab vositasida boshqariladi (Mill Dj.S. Osnovi politicheskoy ekonomii i nekotoriye aspekti ix priljeniya k sotsialnoy filosofii. V 3 t. – M.: Progress, 1980.).

Tashqi savdo aloqalaridagi ustunliklarni aniqlashda asosiy mezonlardan biri narxlardir. Ichki va jahon bozorlaridagi narxlarni solishtirish, eksport qiluvchilar uchun mahalliy narxlarning jahon bozoridagi narxlardan past bo‘lgan vaziyatdagina sotish foyda keltirishi aniqlanadi. Bundan kelib chiqqan holda, A.Smit davlatlar ixtisoslashuvlarida boshqa

davlatlarga nisbatan mutloq ustunlikka ega bo‘lgan mahsulot turlari ni tanlashlari zarur degan xulosaga keladi. A. Smit fikricha tashqi savdoda ham har bir oila xo‘jaligida amal qilinadigan tamoyillarga rioya qilish zarur (Smit A. Issledovaniye o prirode i prichinax bogatstva narodov – M.: Ekonov-Klyuch, 1993. s. 265.).

Shu nuqtai nazardan, A.Smit import qilishda mahsulotni mutloq kam xarajatlar bilan ishlab chiqaradigan davlatlar mahsulotini tanlash, eksport qilishda esa ichki ishlab chiqarishda kam xarajat talab etadigan tovarlarga e’tibor berish tamoyilini asoslab berdi.

Xalqaro savdo mamlakatlarning resurslar bilan ta’milanganlik darajasidagi tafovutlar tufayli yuritilishi to‘g‘risidagi nazariya – eng keng tarqalgan xalqaro savdo nazariyalaridan biri hisoblanadi. U shvetsiyalik olimlar Eli Xeksher va Bertil Olin tomonidan asoslab berilgan (Samuelson P. Ekonomika. V 2 t. – M.: Algon, 1992. – T. 2, gl. 40, 41.).

Mazkur nazariyada turli mamlakatlarning ishlab chiqarish omillari bilan turli darajada ta’milanganligi va tovar ishlab chiqarishda ma’lum mahsulot turlariga ixtisoslashuv mavjudligiga alohida e’tibor qaratilganligi uchun, u «omillar nisbati» (proporsiyasi) nomi bilan ham yuritiladi. Milliy xo‘jaliklar ishlab chiqarishida vujudga keladigan tafovutlar mamlakatlarning ishlab chiqarish omillari – yer, mehnat, kapital bilan turli darajada ta’milanganligi, shuningdek, u yoki bu tovarlarga bo‘lgan ichki iste’molning turlicha ekanligi bilan izohlanadi.

Amerikalik iqtisodchilar – P.Samuelson va V. Stolperlar Xeksher- Olin teoremasi isbotini yanada takomillashtirib, o‘zlarining nazariyalarini taklif qildilar: ishlab chiqarish omillari va texnikaning bir xilligi, mukammal raqobat va tovarlarning to‘la safarbarligi sharoitida xalqaro almashuv mamlakatlارaro ishlab chiqarish omillari narxlarini tenglashtiradi (Samuelson P. Ekonomika. V 2 t. – M.: Algon, 1992. – T. 2, gl. 40, 41.).

Yuqoridagi nazariy qarashlar asosan tashqi savdoni erkinlashtirish orqali mamlakatning nisbiy afzalligidan yetarli darajada foydalangan holda iqtisodiy o‘sishga erishish mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Ammo, oxirgi nazariy qarashlar shuni ko‘rsatmoqdaki, tashqi savdoni to‘liq erkinlashtirish barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’milnamaydi. Bu yerda asosan, importni ekrinlashtirishning eksport rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi e’tirof etilgan. Dj.Saksning ta’kidlashicha: «...ayrim Sharqiy Osiyo davlatlari importni to‘liq erkinlashtirmasdan eksportni rivojlantirishga erishdi. Ushbu mamlakatlarda import qachonki, eksportga yo‘naltirilgan sanoat barpo etilgan va mustahkamlangandan keyingina erkinlashtirila boshlandi» (Sachs J.D. Trade and Exchange Rate Policies in Growth-Oriented Adjustment // Growth-Oriented Adjustment programs / Ed. by V.Corbo, M.Godstein, M.Khan –

Washington DC: The IMF and The World Bank, 1987.).

Ayni vaqtida O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanish mohiyati ham eksportga yo‘naltirilgan strategiyaga asoslangan. O‘zbekistonlik iqtisodchi olim Esh.Trushin tadqiqotlarida eksportning iqtisodiyot rivojlanishidagi o‘rniga quyidagicha baho beradi: «tashqi savdoni to‘liq erkinlashtirish iqtisodiyotni rivojlantirishning eng optimal strategiyasi hisoblanmaydi... Milliy iqtisodiyotni eksportga yo‘naltirilganligiga eksportni erkinlashtirish va eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab- quvvatlash orqali erishish mumkin» (Trushin E.F. Eksportooriyentirovannoje razvitiye ekonomiki v usloviyax perexoda k rinku (na primere Respublikи Uzbekistan). Dissertatsiya na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata ekonomiceskix nauk, Tashkent. 1999 g.).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yefimova O.V. Finansoviy analiz: sovremenniy instrumentariy dlya prinyatiya ekonomisheskix resheniy./usheb./O.V. Yefimova. - 5-ye izd., ispr. - M.: Omega-L, 2014. - 348s.
2. Kazakova N.A. Finansoviy analiz. /usheb i praktikum / N.A. Kazakova. - M.: Yurayt, 2014. - 539 s.
3. Brealey R.A., Mers S.S. Prinsiples of sorporate finanse. MsGraw-Hill, 2003.
4. Kumri Nomozova. Organizational and esonomis modeling of the system of interregional industrial sooperation as a sontrol objest. Proceedings of the 7th International Sonferense on Future Networks and Distributed Systems. 2023. – p. 333-343.
5. Kumri Isoyevna Nomozova. Problems of sesurity of esonomis and esologisal systems in the sountries of the sentral Asian Region. International Sonferense on Next Generation Wired/Wireless Networking. 2023. – p. 177-195.
6. Kumri Nomozova. Evolyusiya teorii predprinimatelskogo riska v rabotax vidayushixsyu ushenix proshlogo. Peredovaya ekonomika i pedagogisheskie texnologii. 2025. – s. 581-587.
7. Nomozova Qumri Isoevna. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq risklarni sug‘urta vositasida boshqarish usullari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. - 4-7 b.
8. Kumri Nomozova. Mikrostraxovanie kak innovatsionniy mexanizm upravleniya riskami malogo biznesa. Ekonomisheskoe razvitie i analiz, 2024. - s. 338-345.
9. Qumri Nomozova. Biznes risklarini sug‘urtalash: zamonaviy sharoitlarda asosiy turlari va ularning xususiyatlari. Moliya va bank ishi. 2024. – 44-48 b.

-
10. Qumri Nomozova. Moliyaviy hisobotlar va ularni tuzish va auditorlik tekshiruvidan o ‘tkazishning uslubiy jihatlarini rivojlantirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024.
11. Qumri Nomozova. O‘zbekistonda tadbirkorlik tavakkalshiliklari sug‘urtasini rivojlantirish istiqbollari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. – 7-10 b.
12. B.E.Toshmurodova Korporativ moliya strategiyasi– T.: “Iqtisod- moliya”, 2013. – 128 b.
13. Vahobov A.V., Malikov T.S. MoliY. Darslik. – T.: “Sharq”, 2010. – 804 b.
14. Van Xorn D.K. Osnovi upravleniya finansami/ D.K.Van Xorn; Per.s angl.; Gl. red. serii Y.V.Sokolov. -M: Finansi i statistika, 1996. - 800 s: il.
15. Publis Finanse: A Sontemporary Applisation of Theory to Polisy, Tenth Edition. David N. Hyman. 2010, 2011 South-Western, Sengage Learning
16. Malikov T., Jalilov P. Byudjet-soliq siyosati.– T.: “Akademnashr”, 2011.– 472 b.